АССОЦИАЦИЯ МЕТАЛЛУРГИИ УЗБЕКИСТАНА

РУС ЛОМ .КОМ

# ANGLASHUV MEMORANDUMI

## O'zbekiston Metallurgiya Uyushmasi

## VA

## NSRO «RUSLOM.KOM» Uyushmasi

O'zbekiston Metallurgiya Uyushmasi va NSRO «RUSLOM.KOM» Uyushmasi (keyingi o'rinlarda — «Tomonlar»),

– O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi sanoat va iqtisodiy o'sishi uchun metallurgiya xomashyosining barqaror yetkazib berilishini ta'minlash va metallolomni qayta ishlashni rivojlantirishning strategik ahamiyatini e'tirof etib;

– Rossiya Federatsiyasining metallolom bozorini yig'ish, qayta ishlash va standartlashtirish tizimini tashkil etish bo'yicha tajribasini inobatga olib;

– sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, transport-logistika yo'nalishlarini takomillashtirish, shuningdek, metallurgiya sohasining samaradorligini oshirishga qaratilgan qo'shma tashabbuslarni amalga oshirishga intilib;

**Tomonlar quyidagilar haqida kelishib oldilar:**

**1. Hamkorlik yo'nalishlari**

1.1. Rossiya Federatsiyasidan O'zbekiston Respublikasiga qora metallolom yetkazib berish hajmlarini baholash, shu jumladan optimal transport-logistika yo'nalishlarini ishlab chiqish.

1.2. Eksport cheklovlarini bekor qilish masalalari bo'yicha qo'shma pozitsiyani kelishish va metallurgiya xomashyosini yetkazib berish bo'yicha uzoq muddatli shartnomalarni shakllantirish.

# МЕМОРАНДУМ О ВЗАИМОПОНИМАНИИ

## МЕЖДУ

## Ассоциацией Металлургии Узбекистана

## и Ассоциацией НСРО «РУСЛОМ.КОМ»

Ассоциация Металлургии Узбекистана и Ассоциация НСРО «РУСЛОМ.КОМ» (далее совместно — «Стороны»),

– признавая стратегическую важность обеспечения стабильных поставок металлургического сырья и развития переработки металлолома для промышленного и экономического роста Республики Узбекистан и Российской Федерации;

– учитывая опыт Российской Федерации в организации системы сбора, переработки и стандартизации рынка лома;

– стремясь к развитию промышленной кооперации, совершенствованию транспортно-логистических маршрутов, а также к реализации совместных инициатив, направленных на повышение эффективности металлургической отрасли;

**Стороны договорились о нижеследующем:**

**1. Направления сотрудничества**

1.1. Проведение оценки доступных объёмов поставок чёрного металлолома из Российской Федерации в Республику Узбекистан, включая разработку оптимальных транспортно-логистических маршрутов.

1.2. Согласование совместной позиции по вопросам снятия экспортных ограничений и формирование долгосрочных контрактов на поставку металлургического сырья.

1.3. O‘zbekiston Respublikasida qayta ishlash quvvatlarini yaratish bo‘yicha Rossiya texnologiyalari va investitsiyalarini jalb etgan holda qo‘shma tashabbuslarni amalga oshirish.

1.4. Tashkilot standartlarini (STO) ishlab chiqish, auditlar o‘tkazish va mahsulot sifatini ta’minlash bo‘yicha tajriba almashish.

1.5. Kadrlarni qo‘shma tayyorlash, shuningdek, sohaviy forumlar, konferensiyalar va o‘quv dasturlarini tashkil etish.

**2. Hamkorlik shakllari**

2.1. Xomashyo, logistika, normativ-huquqiy baza, investitsiyalar va texnologiyalar bo‘yicha ishchi guruhlar tashkil etish.

2.2. Narxlarni monitoring qilish, talabni prognozlash va ta’minot zanjirlarini boshqarish uchun raqamli yechimlarni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shma tadqiqotlar o‘tkazish.

2.3. Uyushmalar bazasida analitik va logistika markazini yaratish bo‘yicha «yo‘l xaritasi»ni ishlab chiqish.

2.4. Doimiy ikki tomonlama uchrashuvlar va sohaviy missiyalarni tashkil etish.

2.5. O‘zbekiston va Rossiya Federatsiyasi davlat organlariga o‘zaro savdoni rivojlantirish va to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar tayyorlash.

**3. Maxfiylik**

3.1. Tomonlar taqdim etiladigan ma’lumotlarning maxfiyligini saqlash majburiyatini oladilar.

3.2. Ma’lumotlarni uchinchi shaxslarga berish faqat boshqa Tomonning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.

1.3. Реализация совместных инициатив по созданию перерабатывающих мощностей на территории Республики Узбекистан с привлечением российских технологий и инвестиций.

1.4. Обмен опытом в области разработки стандартов организаций (СТО), проведения аудитов и обеспечения качества продукции.

1.5. Совместная подготовка кадров, а также организация отраслевых форумов, конференций и обучающих программ.

**2.Формы сотрудничества**

2.1. Создание рабочих групп по ключевым направлениям: сырьё, логистика, нормативная база, инвестиции и технологии.

2.2. Проведение совместных исследований по мониторингу цен, прогнозированию спроса и развитию цифровых решений для управления цепочками поставок.

2.3. Разработка дорожной карты по созданию аналитического и логистического центра на базе ассоциаций.

2.4. Организация регулярных двусторонних встреч и отраслевых миссий.

2.5. Подготовка предложений для органов власти РФ и Узбекистана по развитию взаимной торговли и снятию барьеров.

**3. Конфиденциальность**

3.1. Стороны обязуются сохранять конфиденциальность передаваемой информации.

3.2. Передача информации третьим лицам возможна только с письменного согласия другой Стороны.

3.3. Maxfiylik majburiyatlari hamkorlik tugaganidan keyin ikki yil davomida amal qiladi.

3.3. Обязательства по конфиденциальности действуют в течение двух лет после завершения сотрудничества.

**4. Yakuniy qoidalar**

**4. Заключительные положения**

4.1. Ushbu Memorandum Tomonlarning niyatlarini ifodalaydi va huquqiy yoki moliyaviy majburiyatlarni yuzaga keltirmaydi.

4.1. Настоящий Меморандум выражает намерения Сторон и не создаёт юридически обязательных или финансовых обязательств.

4.2. Barcha amaliy tashabbuslar va loyihalar alohida kelishuvlar asosida amalga oshiriladi.

4.2. Все практические инициативы и проекты осуществляются на основе отдельных соглашений.

4.3. Memorandum imzolangan vaqtdan kuchga kiradi va tomonlarning kelishuviga ko'ra amalga oshirilguniga qadar amal qiladi.

4.3. Меморандум вступает в силу с момента подписания и действует до его выполнения по согласованию сторон.

**O'zbekiston Metallurgiya Uyushmasi nomidan:**

Uyushma Raisi Tojimirzaeva G. B.

____________________

**От имени Ассоциации Металлургии Узбекистана:**

Председатель Ассоциации Тожимирзаева Г. Б.

____________________

**NSRO RUSLOM.KOM nomidan:**

Uyushma Direktori V.V. Kovshevniy

____________________

**От имени Ассоциации НСРО РУСЛОМ.КОМ**

Директор Ассоциации В.В. Ковшевный

____________________